

## XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya boshqarmasi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)


Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning 1- aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 39 357 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 28 934 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 73,5 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (33,0 %), Chust (8,0 %), Uychi (6,5 %) va Namangan (6,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2023- yilning 1- aprel holatiga)

	Ro'yxatga oligan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>39 357</b>	<b>100,0</b>	<b>28 934</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	12 969	33,0	9 119	31,5
Mingbuloq	1 775	4,5	1 369	4,7
Kosonsoy	2 383	6,1	1 735	6,0
Namangan t.	2 536	6,4	1 711	5,9
Norin	1 994	5,1	1 499	5,2
Pop	2 478	6,3	2 135	7,4
To'raqo'rg'on	2 451	6,2	1 845	6,4
Uychi	2 564	6,5	1 872	6,5
Uchqo'rg'on	2 533	6,4	1 970	6,8
Chortoq	2 424	6,2	1 741	6,0
Chust	3 155	8,0	2 374	8,2
Yangiqo'rg'on	2 095	5,3	1 564	5,4

**Ro‘yxatdan o‘tgan sub’yektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da**  
(2023- yilning 1- aprel holatiga)



- Namangan sh.
- Mingbuloq
- Kosonsoy
- Namangan t.
- Norin
- Pop
- To‘raqo‘rg‘on
- Uychi
- Uchqo‘rg‘on
- Chortoq
- Chust
- Yangiqo‘rg‘on

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (32,0 %)), sanoat (21,3 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (8,6 %) hamda qurilish (6,6 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.



## Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

### Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha

(2023- yilning 1- aprel holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		Faoliyat ko‘rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	34 743	100,0	24 646	100,0


shu jumladan:

qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 339	9,6	2 232	9,0
sanoat	8 390	24,2	5 789	23,5
qurilish	2 610	7,5	1 735	7,0
savdo	12 572	36,2	9 315	37,8
tashish va saqlash	1 311	3,8	954	3,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 813	5,2	1 275	5,2
axborot va aloqa	554	1,6	385	1,6
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	701	2,0	586	2,4
boshqa turlari	3 453	9,9	2 375	9,6


**Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalarini soni**  
(tashkiliy-xuquqiy shakli bo‘yicha  
2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



*Mas'uliyati cheklangan jamiyat*



*Xususiy korxona*




***Mas'uliyati cheklangan jamiyat***

*Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis xujjalari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo‘lib zarar uchun o‘zları qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.*

*Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo‘ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “mas'uliyati cheklangan” degan so‘zлarni o‘z ichiga olishi kerak.*

### **Oilaviy korxonalar soni**

(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 1 432 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 163 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 077 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 136 taga yoki 88,8 foizni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 48 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36 taga yoki 57,1 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining xududlar kesimida soni**

(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni  
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)**


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 26 144 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 509 taga yoki 115,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18 834 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 801 taga yoki 87,1 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 158 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga yoki 94,5 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan  
jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni  
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)**




2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 443 ta (jamidagi ulushi 34,2 %), Pop 1 421 ta (7,5 %), Uychi 1 300 ta (6,9 %), Uchqo'rg'on 1 288 ta va Chortoq 1 280 (6,8 % dan), Kosonsoy 1 167 ta (6,2 %), Chust 1 126 ta (6,0 %), Namangan 1 049 ta (6,0 %), Norin 1 022 ta (5,4 %) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksinchaleng kam Mingbuloq 746 ta (4,0 %), To'raqo'rg'on 983 ta (5,2 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarini jamiga nisbatan ulushi, foizda**



**Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda**



● Ishlab chiqaradigan sanoat

● Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

● Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash

● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



**Ro‘yxatga olingan faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning**

**ijtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**


(2023- yilning 1- aprel holatiga)

	<i>Ro‘yxatga oligan</i>		<i>Faoliyat ko‘rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Jami	39 357	100,0	28 934	100,0

*shu jumladan:*

qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 367	8,6	2 260	7,8
sanoat	8 391	21,3	5 789	20,0
qurilish	2 614	6,6	1 737	6,0
savdo	12 577	32,0	9 317	32,2
tashish va saqlash	1 312	3,3	955	3,3
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 815	4,6	1 277	4,4
axborot va aloqa	590	1,5	417	1,4
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	808	2,1	689	2,4
boshqa turlari	7 883	20,0	6 493	22,5


**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da  
(2023- yilning 1- aprel holatiga)**




Korxona va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlarning ulushi 73,5 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 26,5 % ni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda, bu ko‘rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 26,1 foiz oshgan.

**Korxona va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat  
ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**

**01.04.2022 yil**



**01.04.2023 yil**




█ Faoliyatsizlar

█ Faoliyat ko‘rsatayotganlar

2023- yil 1- aprel holatiga 24 672 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 4 326 ta, oilaviy korxonalar – 1 077 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 18 834 tani va 435 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar va xo‘jalik yurituvchi  
sub’ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo‘yicha  
taqsimlanishi, birlikda**

■ 01.04.2022 yil ■ 01.04.2023 yil




2023- yil yanvar-mart oylarida jami 1 310 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90,2 foizni tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (354 ta), Mingbuloq (113 ta), Uchqo’rg’on (111 ta), Pop (104 ta), Chortoq (103 ta), Uychi (94 ta), Yangiqo’rg’on (89 ta), To’raqo’rg’on (80 ta), Chust (75 ta), Norin (71 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng kami esa, Namangan (57 ta) va Kosonsoy (59 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

## Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*  
(2023- yilning 1- aprel holatiga)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda*  
(2023- yilning 1- aprel holatiga)



**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(2023- yilning 1- aprel holatiga)**

• Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat

653



• Yashash uchun joy bilan ta‘minglangan holda parvarishlash

17




• Yashash uchun joy bilan ta‘minglanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

19




**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot, birlikda**

■ 2022 y. ■ 2023 y.




**Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona  
va tashkilotlarning soni, birlikda  
(2023- yilning yanvar-mart oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 39,0 %, sanoatda 18,8 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 10,5 %, qurilishda 4,8 % ni tashkil etadi.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi  
(2023- yilning yanvar-mart oylarida)**



**2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**

**56,3 %**



*Sanoat*

**6,2 %**



*Qishlog, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi*

**14,3 %**



*Savdo*

**18,7 %**




*Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar*

**2,1 %**



*Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar*



*Boshqa turlar*

2023- yil 1- aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 24 488 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022 yil mos davriga nisbatan 82,9 % tashkil qilgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 7 781 tasi (jami sub'ektlarning 31,8 %) Namangan shahriga, 2 035 tasi (8,3 %) Chust 1 790 tasi (7,3 %) Pop, 1 689 tasi (6,9 %) Uchqo'rg'on, 1 601 tasi (6,5 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 123 tasi (4,6 %) Mingbulloq,



## *Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati*

1 245 tasi (5,1 %) Norin, 1 269 tasi (5,2 %) Yangiqo‘rg‘on, 1 450 tasi (5,9 %) Kosonsoy tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

### Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2022- yil 1- aprel holatiga		2023- yil 1- aprel holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>29 526</b>	<b>100,0</b>	<b>24 480</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	9 658	32,7	7 781	31,8
Mingbuloq	1 272	4,3	1 123	4,6
Kosonsoy	1 834	6,2	1 450	5,9
Namangan t.	2 056	7,0	1 469	6,0
Norin	1 483	5,0	1 245	5,1
Pop	1 870	6,3	1 790	7,3
To‘raqo‘rg‘on	1 892	6,4	1 565	6,4
Uychi	1 995	6,8	1 601	6,5
Uchqo‘rg‘on	1 793	6,1	1 689	6,9
Chortoq	1 773	6,0	1 471	6,0
Chust	2 408	8,1	2 035	8,3
Yangiqo‘rg‘on	1 492	5,1	1 269	5,2

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 24 488 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 9 290 tasi (37,9 %) - savdoda, 5 741 tasi (23,4 %) - sanoatda, 2 221 tasi (9,1 %) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 723 tasi (7,0 %) - qurilishda, 1 274 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 951 tasi (3,9 %) - tashish va saqlashda, 579 tasi (2,4 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 385 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 324 tasi (9,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri

keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.


**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining  
ijtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da  
(2023- yilning 1- aprel holatiga)**



2023- yil yanvar-mart oylarida jami 1 272 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlari yangi tashkil etilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 92,2 foiztui tashkil etgan.

Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (344 ta), Mingbuloq va Uchqo‘rg‘on (109 tadan), Pop (100 ta), Chortoq (96 ta), Uychi (94 ta), Yangiqo‘rg‘on (88 ta), To‘raqo‘rg‘on (78 ta) va Chust (73 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (54 ta), Kosonsoy (57 ta) va Norin (70 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik  
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo‘yicha soni, birlikda**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko‘p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (511 ta), sanoatda (246 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (138 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (68 ta) hamda qurilishda (62 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta), axborot va aloqada (34 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining jami ro‘yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo‘lmoqda.

Jumladan, 2023- yilning 1- aprel holatiga Namangan viloyatida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 5,2 % ni (1 272 ta) tashkil qilgan, ularning soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107 taga ko‘maygan.

Hisobot davrida 484 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati tugatilgan bo‘lib, ularidan 391 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 80,8 %) ixtiyoriy tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da  
(2023- yil yanvar-mart)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 230 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 64 taga yoki 78,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 124 tasi qo'shma korxonalar, 106 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma  
korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda  
(2023- yilning 1- aprel holatiga)

Xorijiy korxonalar  
**106**

Jami  
**230**

Qo'shma korxonalar  
**124**



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda  
(2023 yilning 1 aprel holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 98 ta (42,6 %), Pop 29 ta (12,6 %), Kosonsov 17 ta (7,4), Chust 14 ta (6,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbulloq, To'raqo'rg'on 6 tadan (1,6 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi  
(2023-yilning 1-aprel holatiga)**

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>230</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	98	42,6
Mingbulloq	6	2,6
Kosonsov	17	7,4
Namangan t.	13	5,7
Norin	8	3,5
Pop	29	12,6
To'raqo'rg'on	6	2,6
Uychi	12	5,2
Uchqo'rg'on	7	3,0
Chortoq	11	4,8
Chust	14	6,1
Yangiqo'rg'on	9	3,9



## Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati


Faoliyat ko'rsatayotgan 230 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 98 tasi (42,6 %) sanoat, 55 ta (23,9 %) savdo, 21 ta (9,1 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 17 tasi (7,4 %) qurilish, 6 tasi (2,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 8 tasi (3,5 %) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 4 tasi (1,7 %) tashish va saqlashda hamda 21 tasi (9,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi (2023- yilning 1- aprel holatiga)

	<b>birlik</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Jami</b>	<b>230</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	9,1
sanoat	98	42,6
qurilish	17	7,4
savdo	55	23,9
tashish va saqlash	4	1,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	2,6
axborot va aloqa	-	-
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	3,5
boshqa turlari	21	9,2

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy  
kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da**



2023- yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 16 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6 taga yoki 60,7 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 7 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta, Turkiya – 3 ta, Janubiy Koreya va Polsha Respublikalarida – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Viloyatdagi 16 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (12 ta), Kosonsoy, Norin, Pop va Yangiqo'rg'on (1 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq va Chust tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.




## Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi (2023- yil yanvar-mart)


	<b>birlik</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>16</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	12	74,8
Mingbuloq	-	-
Kosonsoy	1	6,3
Namangan t.	-	-
Norin	1	6,3
Pop	1	6,3
To‘raqo‘rg‘on	-	-
Uychi	-	-
Uchqo‘rg‘on	-	-
Chortoq	-	-
Chust	-	-
Yangiqo‘rg‘on	1	6,3

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan savdoda 9 ta, sanoatda 3 ta, qurilishda, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, tashish va saqlashda, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha soni, birlikda  
(2023- yil yanvar-mart)**



**2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



**Oilaviy korxonalar.** Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2023 yil 1 aprel holatiga 1 432 tani tashkil etib, ulardan 1 077 tasi yoki 75,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 0,8 % ga oshganligini ta'kidlash mumkin.